

**NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISHGA QARATILGAN
TAYYORLOV O'YINLARI**

*Jizzax davlat pedagogiga universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti
Maxsus pedagogika logopediya yo'nalishi 511-21(402)-guruh talabasi
Muxammadjonova Azizaxon Asqarbek qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzilishlarini bartaraf etishda tayyorlov o'yinlarining psixologik, pedagogik va fiziologik jihatdan qanday integratsiyalangan tarzda qo'llanishi, ularning bola rivojiga ko'rsatadigan ko'p yo'nalishli ta'siri haqida so'z boradi. Maktabgacha va kichik mакtab yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini tuzatishga qaratilgan tayyorlov o'yinlarining pedagogik va psixologik ahamiyati ochib berilgan. O'yinlarning logopedik faoliyatdagi roli, ularni tanlash va qo'llash usullari ilmiy nazariya va amaliy tajribalar asosida yoritiladi. Bolalar nutq kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan tayyorlov o'yinlarining ilmiy asoslari, ularning psixologik-pedagogik ahamiyati, logopedik faoliyatda qo'llanishi va samaradorligi tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy logopedik yondashuvlarda o'yin metodlarining ahamiyati ochib beriladi va o'yin orqali nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi metodik yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so'zları: nutq kamchiligi, tayyorlov o'yinlari, integrativ yondashuv, artikulyatsiya, logopediya, sensor rivojlanish, fonematik eshituv, nafas mashqlari, og'zaki nutq, bolalar psixologiyasi.

Abstract: This article discusses the integrated psychological, pedagogical and physiological use of preparatory games in the correction of speech disorders, their multifaceted impact on child development. The pedagogical and psychological significance of preparatory games aimed at correcting speech disorders in preschool and primary school children is revealed. The role of games in speech therapy activities, methods of their selection and application are highlighted on the basis of scientific theory and practical experience. The scientific

foundations of preparatory games aimed at correcting children's speech defects, their psychological and pedagogical significance, application and effectiveness in speech therapy activities are analyzed. The importance of game methods in modern speech therapy approaches is also revealed and methodological approaches that stimulate speech development through play are highlighted.

Key words: *speech defect, preparatory games, integrative approach, articulation, speech therapy, sensory development, phonemic hearing, breathing exercises, oral speech, child psychology*

Аннотация: В статье рассматривается комплексное использование подготовительных игр в лечении речевых нарушений с точки зрения психолого-педагогических и физиологических аспектов, их многогранное влияние на развитие ребенка. Раскрывается педагогическое и психологическое значение подготовительных игр, направленных на коррекцию речевых нарушений у детей дошкольного и младшего школьного возраста. На основе научной теории и практического опыта освещается роль игр в логопедической деятельности, методика их отбора и применения. Анализируются научные основы подготовительных игр, направленных на коррекцию дефектов речи у детей, их психолого-педагогическое значение, применение и эффективность в логопедической деятельности. В статье также раскрывается значение игровых методов в современных логопедических подходах и освещаются методические подходы, стимулирующие развитие речи через игру.

Ключевые слова: *нарушение речи, подготовительные игры, интегративный подход, артикуляция, логопедическое развитие, сенсорное развитие, фонематический слух, дыхательные упражнения, устная речь, детская психология*

Nutq bolalar ruhiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli jarayondir. Maktabgacha yoshdagi

bolalar orasida nutq rivojlanishidagi buzilishlar keng tarqalgan. Bu buzilishlar o'z vaqtida aniqlanmasa va tuzatish ishlari olib borilmasa, ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, logopedik faoliyatda nutqni rivojlantirishga qaratilgan tayyorlov o'yinlarining o'rni beqiyosdir.

Bolalar nutqining rivojlanishi — bu nafaqat biologik, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim jarayon bo'lib, atrofdagilar bilan muloqot qilish, o'z fikrini ifoda etish va shaxs sifatida shakllanishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda bolalarda nutq buzilishlarining ko'paygani sababli, logopedik faoliyatda innovatsion va o'yin asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi zamon logopediya sohasida nutq kamchiliklarini tuzatishdagi yondashuvlar tobora yangilanib, ko'p yo'nalishli metodlar asosida olib borilmoqda. Tayyorlov o'yinlari shunchaki didaktik vosita bo'lib qolmay, balki bolaning emotsiyal, harakat, idrok, nafas va artikulyatsiya faoliyatlarini uyg'unlashtiruvchi kuchli mexanizm sifatida ishlaydi. Shu sababli, ularni integrativ tarzda qo'llash logopedik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Tayyorlov o'yinlari bolaning ruhiy holatini barqarorlashtirish, nutqiy faoliyatga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ichki motivatsiyani shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bolada o'zini qadrlash, muvaffaqiyat hissini tuyish, jamoadagi ishtiroki orqali ijtimoiylashuv jarayonlari kuchayadi.

Integrativ yondashuv — bu bolani kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan, turli yo'nalishlardagi mashg'ulot va uslublarni birlashtirgan metodik yondashuvdir. Nutq buzilishlarini bartaraf etishda bu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Harakatli faoliyat (kinaestetik yondashuv) — harakatlar orqali tovushni mustahkamlash;

Sensor rivojlanish (audial va vizual stimulyatsiya) — eshitish va ko'rish orqali sezgi tuyg'ularini faollashtirish;

Musiqa va ritm orqali o'yin — tovush va nafasni boshqarishga yordam beradi;

Psixologik moslashuv — bola o'zini erkin tutadi, bu esa mashg'ulotga ochiq bo'lishini ta'minlaydi.

Tayyorlov o'yinlariga ilmiy yondashuv.

Tayyorlov o'yinlari o'z ichiga artikulyatsion, fonematik, nafas olish, ritmik va leksik mashqlarni oladi. Ushbu o'yinlar quyidagi ilmiy nazariyalarga tayanadi:

L. S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida bola potentsial imkoniyatlarini o'yin orqali ro'yobga chiqaradi;

A. R. Luriyaning nutq va psixikaning o'zaro bog'liqligi haqidagi g'oyalari asosida o'yinlar miyaning nutqiy markazlarini faollashtiradi;

N. A. Bernsteining harakat nazariyasiga ko'ra, artikulyatsiya o'yinlari og'iz bo'shlig'i mushaklarini muvofiqlashtiradi.

Tayyorlov o'yinlarining ilmiy-pedagogik asoslari.

Tayyorlov o'yinlari pedagogika, psixologiya va logopediya fanlarining tutashgan nuqtasida joylashgan bo'lib, ular quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Yoshga moslik – o'yinlar bolaning yoshiga va individual rivojlanish darajasiga moslashtiriladi;

2. Faollik va qiziqish uyg'otish – o'yin orqali bola faol ishtirok etadi, bu esa o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;

3. Sensor rivojlanish – tovushlarni eshitish, ajratish va talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantiradi;

4. Nafas va artikulyatsiya mashqlari – nutq apparatini fiziologik jihatdan tayyorlaydi.

Tayyorlov o'yinlari quyidagilarga ajratiladi:

1. Artikulyatsion o'yinlar – tovush ishlab chiqarish uchun zarur mushaklarni rivojlantiradi (masalan, "Arava haydagan ot", "Balchiqqa yopishgan til").

2. Fonematik eshituvni rivojlantiruvchi o'yinlar – tovushlarni eshitish va farqlash qobiliyatini oshiradi ("Tovushni tanla", "Kimni eshitding?").

3. Nafas mashqlari – nutq davomiyligini nazorat qilishda yordam beradi ("Pufla va o'chir", "Shamoldan yashir").

4. Leksik-grammatik o'yinlar – so'z boyligini, grammatik tuzilmani rivojlantiradi ("To'g'ri gap tuz", "So'zdan hikoya yarat").

Xulosa

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda tayyorlov o'yinlarining ahamiyati beqiyosdir. Ular bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi va tizimli qo'llanganda yuqori samaradorlikka ega. Logoped mutaxassislar uchun har bir o'yin faqat ko'ngilochar vosita emas, balki aniq maqsadli pedagogik yondashuvdir. O'yinlar orqali olib borilgan mashg'ulotlar nutqiy rivojlanish bilan birga, bolaning umumiy psixologik holatiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Tayyorlov o'yinlarining integrativ qo'llanilishi logopedik mashg'ulotlarda nutqni tuzatish bilan birga, bola psixikasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Har tomonlama yondashuv esa bolada mavjud nutqiy muammolarni yanada tezroq va samaraliroq bartaraf etishga imkon yaratadi. Shuning uchun logopedlar, defektologlar va maktabgacha ta'lim mutaxassislari tayyorlov o'yinlarini ilmiy asoslangan, tizimli va ijodiy ravishda ishlab chiqishlari zarur.

Tayyorlov o'yinlari bolalar bilan individual yoki guruhda olib boriladigan mashg'ulotlar orqali nutqiy buzilishlarni bartaraf etishda muhim vositadir. O'yin orqali o'qitish metodikasi nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularning rivojlanishini kompleks ta'minlaydi. Shu bois, logopedlar uchun turli shakldagi tayyorlov o'yinlarini yaratish va ularni metodik asosda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yusupova G.T. – Nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan ishslash metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. A'zamova D.R. – Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutqiy rivojlanishning psixologik asoslari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Karimova M.N. – Logopedik mashg'ulotlar to'plami (metodik qo'llanma). — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Ortiqova G. – Bolalarda nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari. — Buxoro: Pedagogika nashriyoti, 2022.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

5. Rajabova Z.X. – Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining roli. — Samarqand: SamDCHTI, 2021.
6. Kattabekova M.A. – Maktabgacha ta’limda nutqiy rivojlanishni ta’minlash texnologiyalari. — Toshkent: Innovatsiya, 2023.
7. www. https://lex.uz
8. www. pedagoglar.uz
9. www.uzbekscholar.com